

## Qurbon hayitini nishonlash to'g'risida

---



### O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

#### qarori

Muborak Qurbon hayiti mohiyatida mujassam bo'lgan xayru saxovat, mehr-oqibat, insonparvarlik singari azaliy an'ana va qadriyatlarimizni asrab-avaylash hamda keng targ'ib etish, xalqimizning ezgu niyat va orzu-intilishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida:

1. O'zbekiston musulmonlari idorasining 2020-yilda Qurbon hayitining birinchi kuni 31-iyul – juma kuniga to'g'ri kelishi haqida qabul qilgan qarorini inobatga olib, mamlakatimizda 2020-yil 31-iyul Qurbon hayiti bayrami sifatida keng nishonlansin.
2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita hamda jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda Qurbon hayitining karantin talablariga rioya qilgan holda, xalqimizning milliy va diniy an'analarga mos ravishda o'tishi uchun tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirsin.
3. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Qurbon hayitini nishonlash bilan bog'liq tadbirlarni yoritish tavsiya etilsin.
4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

### O'zbekiston Respublikasi

**Prezidenti**  
**Sh.Mirziyoyev**

*Toshkent shahri,*

*2020-yil 24-iyul*

**O'ZA**